


62 134 (075)

5-80

**N. H. BOZOROV
S. S. SAIDAHMEDOV**

ELEKTROMEXANIK TIZIMLARNING STATIKA VA DINAMIKASI




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

N.H. Bozorov, S.S. Saidahmedov

**ELEKTROMEXANIK
TIZIMLAR STATIKASI VA
DINAMIKASI**

(Masala, misol va nazorat savollari to'plami)

Oliy o'quv yurtlari talabali uchun o'quv qo'llanma



TOSHKENT — «ISTIQLOL» — 2005

Taqrizchilar:

U. Ibrohimov — TDTU «Elektr yuritma va sanoat qurilmalarini avtomatlashtirish» kafedrasi dotsenti;
F.A. Hoshimov — «O'zbek ipagi» AJ Energetika va mexanizatsiyalash bo'limi boshlig'i, t.f.n.

O'quv qo'llanma 5521300- Elektrotexnika, elektromexanika va elektrotexnologiya hamda 5140900 – Kasb ta'limi (Energetika bakalavriat yo'naliishlari bo'yicha) bakalavriat talabalari uchun mo'ljalangan. Qo'llanma talabalarga elektr yuritma asoslari, elektromexanika tizimlarini boshqarish fanlariga oid masalalarni yechishga yordam beradi.

O'quv qo'llanmada elektromexanik tizimlarning mexanikasi, o'zgarmas va o'zgaruvchan tok elektr dvigatellarining elektromexanik xususiyatlari, elektr yuritmalarining koordinatlarini rostlash, elektr yuritmaning energetikasi, elektr dvigatellarning quvvatini tanlash bo'yicha masala, misol va nazorat savollari hamda ularning yechimlari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Muvofiglashtiruvchi Kengashi qaroriga asosan o'quv qo'llanma sifatida chop etildi

KIRISH

Elektromexanik tizim — bu mexanik tuzilma zvenolari va elektromagnit zanjirlarining majmuasidan iborat bo'lib, u erda **dinamik** jarayonlarning kechishi mexanik va elektr magnit energiyalarining o'zaro bir-biriga aylanishi bilan tavsiflanadi.

Bu tizimning asosiy elementlaridan biri — elektr yuritma bo'lib, uning asosida mashina va ishchi organ harakatga keltiriladi. Bundan tashqari yuritma xususan elektr energiyani ma'lum maqsadlarga erishish uchun avtomatik ravishda boshqaradi.

Elektr yuritma ishlab chiqarishning texnologiyasi tomonidan qo'yilayotgan talablarga to'liq javob berishi, statik va dinamik holatlarda energiya sarfini kamaytirishi uchun elektr yuritmaning mexanik qismini to'g'ri tanlash, elektr dvigatel quvvatini aniq hisob-kitob qilib chiqish hamda uni tanlash, dvigatellarning elektromexanik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda talab etilayotgan rejimlarni ta'minlash, elektr yuritmaga qo'yilayotgan talablarga muvofiq rostlash usulini tanlash va berilgan diapazonni ta'minlash, eng kam energiya **sarfini** ta'minlaydigan statik va dinamik holatlarni hisoblash hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridandir.

Mazkur o'quv qo'llanma talaba larga yuqorida keltirilgan masalalarni yechishga ko'maklashadi va ularda ushbu rejimlarni hisoblash, dvigatel quvvatini aniqlash va tanlash, elektromexanik tizim parametrlarini hisoblab, o'tkinchi jarayonlarni qurish va uning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha ko'nikma hosil qilishga yordam beradi.

I. ELEKTROMEXANIK TIZIMLAR MEXANIKASI

1.1. Savol va masalalar


1.1. Elektromexanik tizimlar (EMT) mexanik qismlari elementlarining inersiya momentini bitta o'qga keltirish shartlari nimalardan iborat?

1.2. EMT mexanik qismlari elementlarining birliklarini bitta o'qga keltirish sharti nimadan iborat?

1.3. EMTning mavjud kuch va momentlarini bitta o'qga keltirish sharti nimadan iborat?

1.4. EMTning ketma-ket ulangan teng bikirlikka ega ikki S_1 va S_2 elementlari uchun ekvivalent bo'lgan S_{12} bikirlikni toping, formulasini aniqlang.

1.5. Kinematik sxemasi 1.1- rasmida keltirilgan EMT mexanik qismidagi ko'tarish mexanizmi uchun hisoblash sxemasini tuzing.



1.1- rasm.

Berilgan:

Dvigatelning inersiya momenti $J_1=0,2 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; reduktor va muftalarning inersiya momentlarini hisobga olmang; barabanning inersiya momenti $J_2=12 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; yukning massasi $m=1000 \text{ kg}$; muftalarning bikrliklari $C_{m1}=10^7 \text{ N} \cdot \text{m/rad}$; $C_{m2}=3 \cdot 10^6 \text{ N} \cdot \text{m/rad}$; po'lat arqonning bikriliqi $C_a=2 \cdot 10^6 \text{ N/m}$;

barabanning diametri $D=0,4$ m; reduktorning uzatish nisbati $i_p=12$; uzatmaning foydali ish koeffitsiyenti (FIK) $\eta=0,8$ ga teng.

1.6. Oldingi 1.5-masalada berilgan ma'lumotlarga tayanib tezlanishi 1 m/s^2 bilan $h=5$ m balandlikka yuk ko'tarish davrida dvigatel hosil qiladigan momentni aniqlang. Bunda dvigatel ishlataladigan quvvatning vaqt bo'yicha $P(t)$ grafigini yasang.

1.7. Yuqoridagi 1.5- masala ma'lumotlariga asoslanib, yukni $h_{\text{bos}}=10$ m balandlikdan to $h_{\text{ok}}=6$ m pastlikkacha 1 m/s^2 tezlanish bilan tushirish davrida dvigatel hosil qiladigan momentni aniqlang. Bu davrda dvigatel quvvatining $P(t)$ vaqt bo'yicha grafigini yasang.

1.8. Yuk bilan birga massasi 1000 kg ega bo'lgan kabina $0,65 \text{ m/s}$ tezlik bilan ko'tarilayapti. Bunda dvigatelning aylanish tezligi 104 rad/s ni tashkil etgan. Dvigatelning baraban bilan birligida inersiya momenti $0,04 \text{ kg/m}^2$ ga teng. Po'lat arqonning inersiya momentini hisobga olmasdan inersiya momentlari yig'indisini aniqlang.

1.9. Ijrochi mexanizmning mexanik tavsifiga ta'rif bering.

1.10. Elektromexanik yuritmaning qanday yuklamasi aktiv deyiladi? Uning mexanik tavsifini keltiring.

1.11. Elektromexanik yuritmaning qanday yuklamasi reaktiv deb ataladi? Uning mexanik tavsifini bering.

1.12. Elektromexanik yuritmaning qanday yuklamasi ventilyatorli (xususiyatga ega) deb ataladi. Uning tavsifini keltiring.


1.13. Lagranj tenglamasini yozib, uning tashkil etuvchilarini tushuntiring.

1.14. Inersiya momentining burilish burchagiga bog'liqlik funksiyasi $J_z=(5+2\sin 3\phi)\text{ga ega}$, dvigatel momenti tezlikka $M=(100-2\omega) \text{ N} \cdot \text{m}$ ko'rinishda bog'liq, yuklama momenti reaktiv xususiyatlari va $20 \text{ N} \cdot \text{m}$ ga teng. Elektr yuritma mexanizmining harakat tenglamasini aniqlang.

1.15. Inersiya momenti $J_z=(5+2\sin 3t) \text{ kg} \cdot \text{m}^2$ funksiyasiga ega, dvigatel momenti tezlikka $M=(100-2\omega)$

ko'rinishda bog'liq, yuklama momenti reaktiv bo'lib, $20 \text{ N} \cdot \text{m}$ ga teng, elektr yuritma mexanizmining harakat tenglamasini aniqlang.


1.16. 1.2- rasmdagi dvigatel momentining vaqtga bog'liqlik grafigi $M(t)$, keltirilgan. Shu grafikka mos keladigan tezlikning vaqtga bog'liqlik grafigi $\omega(t)$ ni tasvirlang.



1.2- rasm.

Bu erda dvigatel o'qiga keltirilgan inersiya momentlarining yig'indisi $J_r = 1,2 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$, qarshilik momenti (aktiv xususiyatga ega) $M_{yu} = 10 \text{ N} \cdot \text{m}$, boshlang'ich tezlik $\omega_{bos} = 0$ deb hisoblang.

1.17. Bikir mexanik zvenoga keltirilgan mexanizmning 1.3- rasmda keltirilgan $\omega(t)$ taxogrammasi ma'lum bo'lgan.



1.3- rasm.

hol uchun dvigatelning $M(t)$ moment grafigini yasang. Bu yerda mexanizmning inersiya momenti yig'indisi $J_{\Sigma}=2 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$, qarshilik momenti $M_{yu}=25 \text{ N} \cdot \text{m}$ (reaktiv xususiyatga ega).

1.18. Qarshilik (yuklama) momenti tezlikka nochiziqli, ya'ni $M_{yu}=(10+\omega^2) \text{ N} \cdot \text{m}$, bog'liq bo'lgan ventilyatorning ishga tushirish vaqtini aniqlang. Bunda dvigatel momenti tezlikka nisbatan chiziqli $M=(202-4\omega) \text{ N} \cdot \text{m}$ bog'liq, dvigatelning ventilyator bilan birgalikdagi inersiya moment yig'indisi $J_{\Sigma}=1,0 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$.

1.19. Dvigatel elektr tarmoqdan uzilganida boshlang'ich tezligi $\omega_b=100 \text{ rad/s}$, yuklama momenti $M_{yu}=(10+0,1\omega+0,0004\omega^2) \text{ N} \cdot \text{m}$ ko'rinishda o'zgaradi, inersiya momenti yig'indisi $J_{\Sigma}=3,0 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$ edi. Shu dvigatelning berilgan holatdan erkin aylanib to'xtash vaqtini aniqlang.

1.20. Tormozlash davrida mexanizm tomonidan o'tilgan yo'lni ushbu shartlar bilan ariqlab bering:

a) birinchi holda tormozlash faqat qarshilik momenti ta'sirida amalga oshiriladi;


b) ikkinchi holda esa tormozlash dvigatelni teskari ulash rejimida amalga oshiriladi.

Bu hollarda dvigatelni tormozlash boshlang'ich tezlik $\omega_b=100 \text{ rad/s}$; dvigatel o'qiga keltirilgan qarshilik momenti $M_{yu}=10 \text{ N} \cdot \text{m}$; dvigatel o'qiga keltirilgan inersiya momentlar yig'indisi $J_{\Sigma}=2 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; keltirish radiusi $R_k=0,1 \text{ m}$ tengligi bo'yicha amalga oshiriladi. Teskari ulash bilan tormozlash rejimida dvigatelning momenti $M=(-100-2\omega) \text{ N} \cdot \text{m}$.

1.21. Mexanizmning 1.4- rasmida berilgan mexanik $M_{yu}(\omega)$ tavsifi uchun dvigatel momentining vaqtga $M(t)$ bog'liqligini toping.


Bunda $t=1 \text{ s}$ vaqt ichida tekis tezlanish bilan $\omega_b=15 \text{ rad/s}$ tezlikka erishiladi. Dvigatelning mexanizm bilan birgalikdagi inersiya momenti $J_{\Sigma}=1 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$.

1.22. Oldingi masalada berilgan shartlar uchun $t=1 \text{ s}$ vaqt ichida turg'un $\omega_b=15 \text{ rad/s}$ tezlikka erishadigan ishga tushirish vaqtini ta'minlaydigan o'zgarmas tok dvigateli M momentining qiymatini toping.



1.4- rasm.

1.23. Dvigatelning 1.5- rasmida berilgan vaqtga bog'liqli $M(t)$ moment bilan harakatlanadigan mustahkam bog'langan (keltirilgan) zveno uchun tezlikning vaqtga $\omega(t)$ bog'liqligini hisoblab, qurib bering. Bunda inersiya momentlari yig'indisi $J_z=1 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; qarshilik momenti $M_{yu}=10 \text{ N} \cdot \text{m}$; boshlang'ich tezlik $\omega_0=10 \text{ rad/s}$.




1.5- rasm.

1.24. Mustahkam bog'langan mexanik zvenoni $t=2 \text{ s}$ vaqt ichida reverslash (teskariga aylanishi)ni ta'minlaydigan dvigatel zarur momentini aniqlang. Bunda inersiya momentlari yig'indisi $J_z=1 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; boshlang'ich tezligi $\omega_0=-100 \text{ rad/s}$, oxirgi

tezligi $\omega = 100$ rad/s, statik qarshilik (reaktiv xususiyatli) momenti $M_{yu} = 50$ N·m.


1.25. Dvigatelning 1.6- rasmida keltirilgan burilish burchagini vaqtga $\phi(t)$ bog'liqlikning qanday shartlarda olish mumkin. Javobni asoslab bering.



1.6- rasm.

1.26. Mustahkam o'rnatilgan mexanik zveno uchun, agar moment $M = 20 \sin 10t$ ifodaga mos ravishda o'zgarsa, o'rnatilgan rejimda tezlik uchun tebranish amplitudasi va fazasini aniqlang. Bunda inersiya momenti $J_z = 2$ kg·m², yuklamaning qarshilik momenti $M_{yu} = 0$.

1.27. Agar $W(p) = \omega(p)/(M(p))$ uzatish funksiyani logarifmik amplituda chastotaviy tavsifi (LAChT) berilgan (1.7- rasm) kesimida A nuqta ma'lum bo'lsa, unda mustahkam o'rnatilgan mexanik zvenoning inersiya momentini aniqlang.



1.7- rasm.

1.28. Ikki massali elastik xususiyatga ega bo'lgan tizimni tuzilish (struktura) sxemasini chizib bering.

1.29. Ikki massaga ega $W(p)=\omega_1(p)/M(p)$ tizim uchun asimptotik LACHTni tasvirlab bering. Agar inersiya massalarining $\gamma=(J_1+J_2)/J_1$ nisbat koeffitsiyenti ikki marta ortsa, ushbu LACHT qanday o'zgaradi:

a) agar ortish birinchi massaning J_1 inersiya momenti o'zgarmasdan, ikkinchi massaning J_2 inersiya momenti hisobida amalga oshirilsa;


b) agar ortish, inersiya momentlarining yig'indisi $(J_1+J_2) = \text{const}$ (o'zgarmas) bo'lib, inersiya massalari ning qayta taqsimlanishi hisobida bajarilsa.

1.30. Tuzilish sxemalarni o'zgartirish qoidalariga asoslanib, ikki massali elastik xususiyatga ega bo'lgan tizim uchun $W(p) = \omega_1(p)/M_{yu2}(p)$ uzatish funksiyasini keltirib chiqaring.

1.31. Ikki massaga ega mexanik tizimning o'matilgan rejimi uchun, agar birinchi massaning inersiya momenti $J_1=1 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$, ikkinchi massaning inersiya momenti $J_2=3 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$, ekvivalent elastiklik koeffisiyenti $C_{12}=3 \cdot 10^4 \text{ N} \cdot \text{m}/\text{rad}$ bo'lganidagi birinchi massa tezligining amplitudasi va fazasini aniqlang. Bunda dvigatel momenti $M = 10 \sin 5t \text{ N} \cdot \text{m}$ qonun bilan o'zgaradi, qarshilik $\cdot M_{yu}$ momenti nolga yaqin. Javobni aniqlang.

1.32. Kinematik sxemasi 1.8- rasmida keltirilgan elektr yuritmaning mexanik qismi uchun erkin tebranish chastotasini aniqlang. Bunda dvigatelning inersiya momenti $J_1=0,1 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$, mexanizmning inersiya momenti $J_2=20 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$ birinchi mustaning bikirligi $C_{m1}=2 \cdot 10^6 \text{ N} \cdot \text{m}/\text{rad}$; ikkinchi mustaning bikirligi $C_{m2}=4 \cdot 10^8 \text{ N} \cdot \text{m}/\text{rad}$; reduktorni uzatish nisbati $i_p=20$. Bu yerda reduktor tishli g'ildiraklarining inersiya momentlari hisobga olinmaydi deb hisoblaymiz.

1.33. Dvigatel ishchi mashinani ijrochi organi bilan bikirligi $C_{12}=10^6 \text{ N} \cdot \text{m}/\text{rad}$ ga teng uzun o'q bilan ulangan. Bunda dvigatelning inersiya momenti $J_1=0,2 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$,



1.8- rasm.


yuklamaning inersiya momenti $J_2 = 0,4 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$. Elektr yuritmaga yuklama tomonidan muntazam davriy ta'sir beriladi. Bunda dvigatel o'qi tezligining tebranish amplitudasini baholash maqsadida uzatish funksiyasi $W(p) = \omega_1(p)/M_{yu2}(p)$ bo'lgan hol uchun LAChT va logarifmik faza chastota tavsifini (LFChT) quring.

1.34. Podshipnikning sinishi tufayli ikki massali mexanik tizimning ikkinchi J_2 massasi qadalib (zaklinila) qolgan. Birinchi J_1 massaga dvigatel momentining sakrashida hosil bo'ladigan o'tkinchi jarayonni hisoblang. Bunda $J_1=1,5 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; $J_2=2,5 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; $C_{12}=10^4 \text{ N} \cdot \text{m}/\text{rad}$; dvigatel momenti $M=60 \text{ N} \cdot \text{m}$; qarshilik momenti va dempferlash (so'ndirish) koeffitsiyentini hisobga oling.

1.35. Dvigatelning mexanik $M(\omega)$ va mexanizmning yuklama $M_{yu}(\omega)$ tavsiflari 1.9- rasmida keltirilgan. 1+4 nuqtalardagi turg'unlikni aniqlang.

1.36. Sentrifuga uchta uzatish nisbatiga ega bo'lgan, ya'ni $i_1=2$; $i_2=4$; $i_3=6$ uzatish qutisi orqali asinxron dvigatel yordamida harakatga keltiriladi. Dvigatelning inersiya momenti $J_d = 1 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$, dvigatelning nominal tezligi $\omega_n = 300 \text{ rad/s}$; sentrifuganing inersiya momenti $J_s = 16 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; qarshilik momenti kichik bo'lgani uchun uni hisobga olmasa ham bo'ladi, dvigatelning momenti $100 \text{ N} \cdot \text{m}$ ga teng. Ana shu berilgan holat uchun qanday uzatish nisbatida sentrifuga maksimal (eng katta) tezlanishga erishishini aniqlang.

Sentrifuga tezlanishining uzatish nisbatiga $\epsilon_s(i)$ bog'liq-



1.9- pacm.

lik, dvigatel vali tezlanishini uzatish nisbatiga $\varepsilon_d(i)$ va sentrifuga tezligini uzatish nisbatiga $\omega_s(i)$ bog'liqlik grafiklarini yasang. Natijalarni sharhlang.


1.37. Ijrochi mashinaning ishchi organini, vali kichik siljishni minimal (eng kichik) vaqtida bajarishi uchun zarur bo'lgan reduktorning uzatish koeffitsiyentini aniqlang. Ishchi organ inersiyaga ega, uning statik qarshilik momentini hisobga olmasa ham bo'ladi. Bunda dvigatelning inersiya momenti $J_1=1 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; dvigatelning nominal momenti $M_n=500 \text{ N} \cdot \text{m}$; dvigatelning nominal tezligi $\omega_n=100 \text{ rad/s}$; mexanizmning inersiya momenti $J_2=16 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$.

1.38. Yukning o'rnatilgan siljishi tezligi $V=1 \text{ m/s}$, tezlanishi $a=1 \text{ m/s}^2$. Yukni $S=2 \text{ m}$ masofaga siljitish kerak. Buning uchun zarur bo'lgan vaqtni aniqlang.

1.39. Birinchisining zichligi $\gamma=1 \text{ kg/m}^3$ bo'lgan materialdan yasalgan va o'lchanlari: diametri $D=1 \text{ m}$; uzunligi $L=1 \text{ m}$; ikkinchisi, tegishlichcha $\gamma=1 \text{ kg/m}^3$; $D=2 \text{ m}$; $L=0,5 \text{ m}$; uchinchisi, tegishlichcha $\gamma=2 \text{ kg/m}^3$; $D=0,5 \text{ m}$; $L=1 \text{ m}$ bo'lgan uchta silindrning inersiya momentlarini solishtiring.

1.2. Masala yechish namunalari

1.1-masala. Dvigatelning inersiya momenti $J_d = 1 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; barabanning inersiya momenti $J_b = 10 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; dvigatel o'qil bilan ulangan shesternyaning inersiya momenti $J_{rl} = 0,1 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; barabanning o'qil bilan ulangan shesternya inersiya momenti $J_{r2} = 2 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; yukning massasi $m = 1000 \text{ kg}$; muftanining bikirligi $C_m = 10^6 \text{ N} \cdot \text{m/rad}$; po'lat arqonni bikirligi $C_a = 10^6 \text{ N/m}$; reduktorning FIK $\eta = 0,8$; barabanning diametri $D_b = 0,2 \text{ m}$; shesternyalarning tishlari soni $r_1 = 12$, $r_2 = 48$ bo'lgan kinematik sxemasi 1.10- rasmida keltirilgan ko'targich mexanizm elektr yuritmasining mexanik qismi uchun hisoblash sxemasini tuzing.



1.10.- rasm.

Yechilish: Inersiya momentlarini va bikirliklarni dvigatel o'qiga keltirishni bajaramiz. Dvigatel o'qiga keltirilgan parametrlarni shtrix (') bilan belgilaymiz. Dvigatel — faza rotorli va r_1 tishlar soni bo'lgan shesternya dvigatel o'qi tezligida aylanadi, shu sababli $J'_d = J_d = 1 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; $J'_{rl} = J_{rl} = 0,1 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$. r_2 shesternya va baraban $\omega_2 = \omega_1/i_p$ tezlik bilan aylanadi, bunda

$$i_p = r_2/r_1 = 48/12 = 4;$$

$$J'_{r2} = J_{r2}/i_p^2 = 2/4^2 = 0,125 \text{ kg} \cdot \text{m}^2;$$

$$J'_{b} = J_b/i_p^2 = 10/4^2 = 0,625 \text{ kg} \cdot \text{m}^2.$$

Yuk ilgarilama harakatlanadi. Ilgarilama harakatlanadigan parametrlarni aylanma harakatlanadigan parametr!arga keltirish uchun keltirish radiusini bilish zarur:

$$\rho_k = V/\omega = D_b/2 \cdot i_p = 0,2/2 \cdot 4 = 0,025 \text{ m.}$$

Yukning inersiyaga ega ekanligini baholovchi m massa, dvigatel valiga xuddi J' inersiya momentiga ega bo'lgan jismdan keltiriladi, ya'ni

$$J' = m \cdot \rho_k^2 = 1000 \cdot 0,025^2 = 0,625 \text{ kg} \cdot \text{m}^2.$$

ω , tezlik bilan aylanayotgan musta bikirligini dvigatel o'qiga keltirish quyidagicha amalga oshiriladi:

$$C' = C_m / r_t = 2 \cdot 10^6 / 4^2 = 12,5 \cdot 10^4 \text{ N} \cdot \text{m/rad.}$$

Po'lat arqonning bikirligi dvigatel o'qiga quyidagicha keltiriladi:

$$C' = C_m \cdot \rho_k^2 = 10^6 \cdot 0,025^2 = 0,625 \cdot 10^3 \text{ N} \cdot \text{m/rad.}$$

Yuk tufayli hosil bo'ladigan yuklama (og'irlik kuchi) dvigatel o'qiga xuddi M_{yu2} moment kabi keltiriladi:

$$M_{yu2} = m \cdot g \cdot \rho_k = 1000 \cdot 9,8 \cdot 0,025 = 245 \text{ N} \cdot \text{m.}$$

Uzatmaning foydali ish koeffitsiyenti orqali berilgan isrof momenti bevosita dvigatel o'qiga ta'sir ko'rsatadi, shu sababli



$$M_{yu1} = M_{yu2}(1/\eta - 1) = 245 (1/0,8 - 1) = 61 \text{ N} \cdot \text{m.}$$

Mexanik qismni hisoblash sxemasida inersiya momentlari maydoni inersiya momentining miqdoriga proporsional bo'lgan to'g'ri burchaklar ko'rinishida, qayishqoqlik esa

to‘g‘ri chiziq ko‘rinishida, chiziqning uzunligini esa tegishli qayishqoqlik miqdoriga teskari uzunlik bilan tasvirlash qabul etilgan. Elektr yuritmaning mexanik qismini dastlabki hisoblash sxemasi 1.11- rasmda tegishli masshtabda keltirilgan.

Mexanik qismning keltirilgan hisoblash sxemasining tahlili arqonni C' , qayishqoqligiga nisbatan mustani C' _m qayishqoqligini hisobga olmasak ham bo‘lishligini ko‘rsatayapti, chunki $C'_{m} > C'$. U holda hisoblash sxemasi soddalashib, 1.11- b rasmda keltirilgan so‘nggi ko‘rinishni oladi. Bunda $C_{12} = C'_{a} = 0,625 \cdot 10^3 \text{ N} \cdot \text{m/rad}$; $J_1 = J_{\text{g}} + J_{\text{rl}} + J'_{\text{t}} + J'_{\text{b}} = 1 + 0,1 + 0,125 + 0,625 = 1,85 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; $J_2 = J'_{\text{rl}} = 0,625 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; $M_{yu1} = 61 \text{ N} \cdot \text{m}$; $M_{yu2} = 245 \text{ N} \cdot \text{m}$.


Shunday qilib, ko‘targich mexanizm elektr yuritmasining mexanik qismini hisoblash sxemasi ikki massali tebranma tizim ko‘rinishida taqdim etilishi mumkin.



Mexanik qismini hisoblash sxemasi


1.11- rasm.

1.2- masala. Mustahkam (dvigatel o'qiga) o'rnatilgan zveno $\omega(t)$ tezligining vaqtga nisbatan o'zgarishi 1.12-rasmida keltirilgan. Ana shu grafik uchun dvigatel momentining vaqtga $M(t)$ bog'liqligini hisoblab, qurib ko'rsating. Buning uchun inersiya momenti yig'indisi $J_z = 1 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; reaktiv xususiyatga ega bo'lgan statik qarshilik momenti $M_{yu} = 10 \text{ N} \cdot \text{m}$ qilib berilgan.





1.12- rasm.

Yechilishi. Mustahkam o'rnatilgan mexanik zveno uchun dvigatel $M(t)$ momentining harakat tenglamasi $M = M_{yu} + J_z d\omega/dt$ ni alohida $\omega(t)$ bo'laklarga qarab aniqlaymiz. Statik qarshilik $M_{yu}(t)$ momentining tezlikka bog'liqligiga qarab alohida hamda dinamik $M_u = J_z d\omega/dt$ momentni alohida ko'rsatamiz. (1.13 va 1.14- rasmlar)



1.13- rasm.



1.14- rasm.


2. DVIGATELLARNING ELEKTROMEXANIK XUSUSIYATLARI

Mazkur bobdagi masalalarini yechish uchun talaba turli dvigatellarda energiyaning o'zgartirish bilan bog'liq dinamik jarayonlarni matematik ifodalashni bilishi va bu ifodalardan foydalana olishi, dvigatellarning statik tavsiflarini hisoblay olishi, turli parametrlar ta'sirini baholashga, turli turdag'i elektromexanik o'zgartgichlarning tuzilish (struktura) sxeinalari hamda chastota tavsiflarini tasvirlay olishi kerak. Berilgan savollarga olingan javoblar elektr dvigatellar qator ko'rsatkichlarining fizik ma'nosini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

2.1. Masala va savollar

2.1. Pasport ma'lumotlari quyidagi qiymatlarga ega bo'lgan mustaqil qo'zg'atishli МП-41 turdag'i o'zgarmas tok dvigatelining tabiiy elektromexanik va mexanik tavsiflarini quring: nominal quvvati $P_n = 12 \text{ kWt}$; nominal kuchlanishi $U_n = 220 \text{ V}$; nominal aylanish chastotasi $n_n = 685 \text{ avl/min}$; nominal toki $I_n = 64 \text{ A}$; yakor va qo'shimcha qutblar chulg'amlarining qarshiliklari $r_y + r_{qq} = 0,248 \Omega$ (qarshiliklarning qiymatlari 20°C harorat uchun berilgan).

2.2. O'zgarmas tok elektr mashinasi 2.1- rasmida tasvirlangan mexanik tavsifning 1—5 nuqtalarida ishlaganida energiya oqimi diagrammalarini va quvvatlar balansini tasvirlab bering.




2.1- rasm.

2.3. Nominal kuchlanishi $U_n = 110 \text{ V}$ ga ega bo'lgan o'zgarmas tok dvigatelining elektromexanik tavsifi 2.2-rasmida keltirilgan. Dvigatelning yakor zanjiri qarshiligidini aniqlash talab etiladi.

2.4. Ko'targich chig'iriq (lebedka) pasport ma'lumotlari:


$P_n = 10 \text{ kWt}$; $U_n = 220 \text{ V}$; $I_n = 50 \text{ A}$; $\omega_n = 104 \text{ rad/s}$; $R_{ya} = 0,1 \Omega$ bo'lgan o'zgarmas tok dvigateli yordamida ishlatiladi.



2.2- rasm.

Ana shu mexanizm massasi 800 kg teng yukni $V = 0,5 \text{ m/s}$ tezlik bilan ko'tarishi uchun yakor zanjiriga qanday qarshilik ulash kerak? Mexanik uzatmaning keltirish radiusi $r_k = 0,01 \text{ m}$; uzatma FIK $\eta = 0,9$ berilgan.

2.5. Silliqlovchi stanokning silliqlash doirasini mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigateli aylantiradi. Uning nominal pasport ma'lumotlari quyidagicha: $P = 6 \text{ kWt}$; $U = 220 \text{ V}$; $n_n = 1100 \text{ ayl/min}$; $I = 33 \text{ A}$; $r_ya + r_{qq} = 0,57 \Omega$; $r_{sch} = 130 \Omega$. Yuklama momenti $M_w = 25 \text{ N} \cdot \text{m}$ bo'lganida silliqlash burchak tezligi $\omega = 210 \text{ rad/s}$ bo'lishi uchun qo'zg'atish chul'gam tokini aniqlang. Sun'iy mexanik va elektromexanik tavsiflarini quring. Elektr mashinani nominal tezlikda olingan salt yurish tavsifi 2.3- rasmida keltirilgan.



2.3- rasm.

2.6. Mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatelining passport ma'lumotlari quyidagilardan iborat: $P_n = 16$ kWt; $\omega_n = 72$ rad/s; $I_n = 86$ A; $U = 220$ V, $R_{ya\Sigma} = 0,21 \Omega$. Koordinatalari $\omega_s = 36$ rad/s, $M_s = 200$ N · m bo'lgan nuqtadan o'tadigan sun'iy mexanik tavsifni olish uchun dvigatel yatoriga beriladigan kuchlanishni qanday o'zgartirish kerak? Sun'iy elektromexanik tavsiflarni quring.

2.7. Mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatelining yakor zanjiriga qo'shimcha qarshilikni kiritish statik mexanik tavsifni ortiqroq chastota oralig'ida ishlatishga imkon boshishini ko'rsating.

2.8. Mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatelining dinamik mexanik tavsifi nominaldan yuqori aylanish chastotalarida yakor zanjirining qarshiligidagi bog'liq emasligini isbotlang.

2.9. Chiziqli mexanik tavsifga ega dvigatelning tezligi $\omega = (100 + 20 \sin 10 t)$ rad/s ko'rinishda o'zgaradi. O'rnatilgan (joriy) rejimda, mexanik tavsifning statik bikirligi $\beta_{st} = 100$ N · m · s; yuklama bilan dvigatelning inersiya momenti yig'indisi $J_z = 0,1$ kg · m², elektromagnit vaqt doimiysi $T_{ya} = 0,1$ s bo'lgan holat uchun dvigatel momentining tebranish amplitudasini aniqlang.

2.10. Nominal rejimda ishlayotgan mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigateli u qo'zg'atish toki 2 marta kamaytilisa, unda statik mexanik tavsifning bikirligi qanday o'zgaradi?


2.11. Nominal rejimda ishlayotgan mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatelinini tezkor to'xtatish uchun (dvigateling nominal ma'lumotlarini 2.6-masaladan oling) dinamik tormozlash qo'llangan. Agar dvigateli o'ta (ortiqcha) yuklanish imkoniyati $\lambda = 2$ bo'lsa, uning yakor zanjiriga zarur bo'lgan qo'shimcha qarshilikni hisoblab toping. Dvigatelning dinamik tormozlash rejimi uchun mexanik va elektromexanik tavsifini quring hamda tormozlash vaqtini aniqlang. Bu holat uchun dvigatel va mexanizmning inersiya momentlari yig'indisi $J_z = 1 \cdot 6$ kg · m², statik yuklama momenti reaktiv xususiyatga egaligi ma'lum.

2.12. Mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatelini (uning pasport ma'lumotlarini 2.6- masaladan oling) generatordan ta'minlanadi, generatorning pasport ma'lumotlari dvigatelnikidan ushbu holatlar uchun dvigatelning elektromekanik tavsiflarini tasvirlang:

- generator qo'zg'atish cho'lg'amidagi simning uzilishi tufayli generatorning EYK nolga teng bo'lib qoldi;
- dvigatel yakorini generator yakori bilan bog'laydigan sim uzildi;
- dvigatelin qo'zg'atish chulg'amidagi sim uzildi.

2.13. Mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatelinin cho'tkasi tasodifan neytraldan siljishi tufayli yakorni magnitsizlantirish reaksiyasi paydo bo'ldi va mexanik $M(\omega)$ tavsif nochiziqli bo'lib qoldi. Dvigatel va yuklamaning mexanik tavsiflari 2.4- rasmda keltirilgan. Chiziqli mexanik $M_{yu}(\omega)$ tavsifga ega yuklama uchun dvigatel ishi turg'unligini aniqlang.

2.14. Magnitlash egriliginining chiziqli bo'lagida ishlayotgan ketma-ket qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatelinin yuklamasi 2 martaga kamaysa, statik mexanik tavsif bikirligi qanday o'zgaradi?



2.4- rasm.

2.15. Ketma-ket qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatelining moment bo'yicha o'ta yuklanish qobiliyati (imkoniyati) mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatelnikidan nima uchun yuqori ekanligini tushuntiring.

2.16. Ketma-ket ko'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatelining salt yurish tezligi amalda nima bilan aniqlanadi?

2.17. Ketma-ket qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatelining tabiiy mexanik tavsifini hisoblang va quring. Nisbiy birlikda ifodalangan elektromexanik tavsif ushbu jadvalda be'ilgan:

$\frac{J}{\omega}$	0,3	0,4	0,5	0,6	0,8	1,0	1,2	1,6	2,0
ω^*	2,28	1,75	1,41	1,28	1,1	1,0	0,92	0,81	0,72

Dvigatelning pasport ma'lumotlari quyidagicha: $P_n = 10 \text{ kWt}$; $\omega_n = 89 \text{ rad/s}$; $I_n = 100 \text{ A}$; $U = 110 \text{ V}$, $R_{\text{шз}} = 0,05 \Omega$.

2.18. Ketma-ket qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigateli yordamida teskari ulanish rejimida nominal momentga teng yuklamani pastga $\omega = -0,5 \omega_n$ tezlik bilan tushirish uchun qanday qarshilik ulash kerakligini aniqlang (ma'lumotlarni oldingi masaladan oling).

2.19. Uzoq muddat zaruriy texnik nazorat bo'lmagan tufayli ketma-ket qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigateli ichidagi ifloslanish qo'zg'atish chulg'amida, uning qarshiligi borian deyarli teng bo'igan, shuntlovchi qarshilik hosil qildi. Bu holda statik mexanik va elektromexanik tavsiflar qanday o'zgaradi?

2.20. Ketma-ket qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigateli (pasport ma'lumotlarini 2.17- masalalar oling) nominal rejimda ishlayapti. Uni tezkor to'xtatish uchun o'zini-o'zi qo'zg'atadigan dinamik tormozlash rejimiga o'tkazib va tokning o'ta o'sishini cheklash uchun qo'shimcha $R = 0,5 \Omega$ qarshilik ulanadi. Statik mexanik tavsifni hisoblang va yakor (kuchli) zanjirining qayta ulashidagi sxemasini tasvirlang.

2.21. Ketma-ket qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigateli bo'lgan yuritmalarda nima sababdan tasmali va zanjirli uzatmalar ishlatilmaydi?

2.22. Ketina-ket qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatelini ikki pog'onada ishga tushiradigan qarshiliklarni hisoblang. (Dvigatelning pasport ma'lumotlarini 2.10- masaladan oling). Bunda maksimal tok qiyinati nominal tok qiyamatidan ikki martadan (ya'ni $I_{\max} < 2 I_n$) ortmasligini ta'minlang.

2.23. Pasport ko'rsatkichlari nominal quvvat $P_n = 9 \text{ kWt}$; nominal aylanish chastotasi $\omega_n = 915 \text{ ayl/min}$; nominal kuchlanishi $U_{ln} = 380/220 \text{ V}$; nominal faza toki $I_{ln} = 24 \text{ A}$; stator chulg'ami fazasining aktiv qarshiligi $r_1 = 0,755 \Omega$; stator fazasining sochilma reaktiv qarshiligi $x_1 = 1,05 \Omega$; rotor fazasining aktiv qarshiligi $r_2 = 0,485 \Omega$; rotor fazasining sochilma oqimidan hosil bo'lgan reaktiv qarshiligi $x_2 = 0,855 \Omega$; dvigatelning qisqa tutashish (harakatsiz) holatida rotor chulg'amida hosil bo'ladigan EYK $E_r = 273 \text{ V}$; inersiya momenti $J = 0,46 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$ bo'lgan asinxron dvigatel uchun tabiiy mexanik va elektromexanik tavsiflarni quring.

2.24. Pasport ma'lumotlari oldingi masalada berilgan asinxron dvigatel uchun rotor zanjiriga qo'shimcha qarshilik ulab sun'iy tavsifini $\omega_s = 45 \text{ rad/s}$ va $M = 50 \text{ N} \cdot \text{m}$ nuqtadan o'tishiga erishing va ana shu reostatli elektromexanik hamda mexanik tavsiflarni hisoblab quring.

2.25. Pasport ma'lumotlari 2.23- masalada keltirilgan asinxron dvigatel nominal qiyatga ega bo'lgan yuklama bilan ishlamoqda. Agar elektr tarmoqning kuchlanishi tasodifan 10% kamaysa, u aylanish tezligiga va dvigatel iste'mol qiladigan tok hamda quvvat koeffitsiyenti cosφ ga qanchalik ta'sir qilishini baholab bering.

2.26. Pasport ma'lumotlari 2.23- masalada keltirilgan asinxron dvigatel (AD) energiyani alohida cheksiz katta quvvatga ega avtonom sinxron generatordan (SG) oladi va nominal rejimda ishlamoqda. Sinxron generatordan rostlash tizimidagi shikastlanish tufayli uning tezligi 10% ga pasaygan, ammo kuchlanish o'zgarmasdan qolgan. Bunday holat uchun (AD) tezligi, iste'mol qiladigan toki va cosφ qanday o'zgarishini baholang.

2.27. Uch fazali asinxron dvigatelning pasport ko'rsatkichlari haqida tushuncha bering. 2.23- masalada dvigatel

berilgan ideal salt yurish rejimida ishlamoqda. Fazalardan bittasi uzilganida dvigatel tezligi va u iste'mol qiladigan tokni aniqlab bering.


2.28. Agar asinxron dvigatelning kritik (eng katta) momenti $M_k = 100 \text{ N} \cdot \text{m}$, kritik sirpanishi $S_k = 0,1$ salt yurish tezligi $\omega_0 = 157 \text{ rad/s}$ ma'lum bo'lsa, bu dvigatelning dinamik bikirligi uchun LAChT va LFChTlarni tasvirlang.

2.29. Faza rotorli asinxron dvigatel nominaldan ancha kichik bo'lgan yuklama bilan yuklangan holda ishgga tushirilish davrida u faqat nominal tezlikning taxminan yarmiga teng tezlikkacha borib etgan xolos. Bu paytda bo'lishi mumkin shikastlanishni tushuntirib bering.

2.30. Asinxron dvigatel ushbu pasport ko'rsatkichlarga ega: $U_{ln} = 380/220 \text{ V}$; $I_{ln} = 10 \text{ A}$; $x_1 = x_2' = 2 \Omega$; $x_\mu = 22 \Omega$; $r_2' = 1 \Omega$. Kritik sirpanish S_k ni aniqlang. Toklar uchun vektor diagrammani quyidagi $S = S_k/2$; $S = S_k$; $S = 2S_k$ sirpanishlar uchun quring. Ularning aktiv tashkil etuvchilarini solishingtiring. Bu nuqtalardagi momentlar nisbati haqida nima deyish mumkinligini tushuntiring.


2.31. Asinxron dvigatelning 2.5- rasmida berilgan mexanik tavsiqidagi 1—5 nuqtalari uchun rotordagi tok chastotalarini aniqlang. Stator tokining chastotasi $f_i = 50 \text{ Hz}$; juft qutblar soni $p_p = 2$; rasmida berilgan nuqtalardagi tezliklar quyidagi-

cha: $\omega_1 = 180 \text{ rad/s}$;
 $\omega_2 = 157 \text{ rad/s}$;
 $\omega_3 = 120 \text{ rad/s}$;
 $\omega_4 = 0 \text{ rad/s}$;
 $\omega_5 = -30 \text{ rad/s}$.



2.32. Asinxron dvigatel statoriga 2.6- rasmida ko'r-satilgan sun'iy tav-sifni olish uchun berilishi kerak bo'lgan U_1 kuchlanishni aniqlang.

ω , rad/s




2.6- rasm.

Stator chulg'aming R_1 qarshiligini hisobga olmasa ($R_1=0$) ham bo'ladi, tarmoqning nominal chastotasi $f_1=50$ Hz; nominal kuchlanishi $U_{ln}=220$ V; sun'iy tavsifdagi chastota $f_s=25$ Hz; juft qutblar soni $p_p=2$.

2.33. Mexanik tavsifi 2.7- rasmida keltirilgan asinxron dvigatel miqdori M_{yu} ga teng bo'lgan reaktiv momentli yuklama bilan ishg'a tushganda qanday tezlikkacha etib boradi?

2.34. Asosiy ta'mir davrida asinxron dvigatelning rotori yo'nildi va natijada uning statori va rotor orasidagi havo tirqishi ikki martaga ortdi. Bu hol asinxron dvigatelning tavsiflariga qanday ta'sir ko'rsatadi.



2.7- rasm.

2.35. Asinxron dvigatelning elektroinagnit inersiyasi u tok manbaidan ta'minlanganda kuchlanish manbaidan ta'minlanganda qaraganda nega yuqori bo'ladi?

2.36. Dinamik tormozlash rejimida asinxron dvigatel magnit zanjirining to'ynishi mexanik tavsif shakliga qanday ta'sir ko'rsatadi?

2.37. Nominal quvvati $P_n = 630 \text{ kWt}$; nominal kuchlanishi $U_n = 6 \text{ kV}$; juft qutblar soni $p_p = 3$; $M_{\max}/M_{\text{nom}} = 1,8$ bo'lgan odatdag'i ayon qutbli sinxron dvigatelning mexanik tavsifini qurib bering.

2.38. Oddiy ish rejimiga mo'ljallangan ayon qutbli sinxron dvigatel ideal salt yurish rejimiga yaqin holatda ishlab turibti. Agar qo'zg'atish toki bir tekisda nolgacha pasaysa, qanday holat yuzaga keladi?

2.39. Ayon qutbli sinxron dvigatel quvvat koeffitsiyenti $\cos\phi = 1$ rejimida turibti. Operator qo'zg'atish tokini ko'paytirdi. Bu hol stator tokiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

2.40. Ayonmas qutbli sinxron dvigatel $M_{\text{yu}} = 0,5 M_n$ yuklama bilan ishlab turipti. Agar statorga berilayotgan kuchlanish 10% ga pasaysa, bunda rotor holatining burchagi stator maydoniga nisbatan qanday o'zgaradi?

2.2. Masala yechish namunaları

2.1- masala. Mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatelinining (MQ O'TD) tabiiy tavsifini hisoblang va quring.

Dvigatel ko'rsatkichlari: $P_n = 20 \text{ kWt}$; $n_n = 750 \text{ ayl/min}$; $U_n = 220 \text{ V}$; $I_n = 100 \text{ A}$.

Yechilish: MQ O'TD tabiiy tavsifining matematik ifodasi ushbu ko'rinishda yoziladi:

a) elektromexanik tavsif uchun

$$\omega = U_{ya}/S - R_{ya\varepsilon} I_{ya}/C;$$

b) mexanik tavsif uchun

$$\omega = U_{ya}/S - R_{ya\varepsilon} M/C^2.$$

Bu formulalarda R_{ya} va $C = k\Phi$ noma'lum hisoblanadi. Odadta o'zgarmas tok mashinalari uchun barcha isroflarni yarmi elektr isroflardan iborat deb qabul qilinadi, ya'ni

$$P_t = U_n I_n = P_n + 2 \cdot I_n^2 R_{ya}.$$

Bundan

$$R_{ya} = U_n I_n / I_n^2 = R_n / 2 \cdot I_n^2 = 220 \cdot 100 / 2 \cdot 100^2 = 20000 / 2 \cdot 100^2 = 0,1 \Omega.$$

Elektromexanik tavsif tenglamasidan quyidagini aniqlaymiz

$$C = U_n / \omega_n - R_{ya} I_n / \omega_n = 220 / \pi \cdot 750 / 30 = 0,1 \cdot 100 / \pi \cdot 750 / 30 = 2,67 \text{ V} \cdot \text{s}.$$

Bu holda:

a) elektromexanik tavsif

$$\omega = 220 / 2,67 - (0,1 / 2,67) \cdot I_{ya} = 82,4 - 0,037 I_{ya};$$

b) mexanik tavsif



$$\omega = 220 / 2,67 - (0,1 / 2,67^2) \cdot M = 82,4 - 0,014 M$$

tenglamalar yordamida hisoblab topiladi. Bunday hisobkitob natijalarida qurilgan MQ O'TD tavsiflari 2.8- rasmda keltirilgan.

2.2- masala. Ketma-ket qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigateldan (KKQ O'TD) yuklama $M_{ya} = M_n$ bo'lganida $\omega_{ya} = -0,2 \omega_n$ tezlikni olish uchun yakor zanjiriga ulanadigan qo'shimcha qarshilikni aniqlang. Dvigatearning pasport ma'lumotlari quyidagicha: $P_n = 100 \text{ kWt}$; $\omega_n = 100 \text{ rad/s}$; $I_n = 1000 \text{ A}$; $U_n = 110 \text{ V}$ (mexanik isroflar momenti hisobga olinmaydi).

Yechilishi. KKQ O'TD mexanik tavsifi ushbu tenglama bilan aniqlanadi:

$$\omega = U_{ya} / k\Phi I_{ya} - (R_{ya} / [k\Phi I_{ya}]) \cdot M.$$



2.8- rasm.

Magnitlanish egriliginini ushbu ikki to‘g‘ri chiziq yordamida chiziqlashtiramiz:

agar $I_{ya} < I_n$ bo‘lsa, unda $\Phi = K_f I_{ya}$ deb qabul qilamiz;
agar $I_{ya} > I_n$ bo‘lsa, unda $\Phi = \Phi_{to'y} = \Phi_n = \text{const}$ deb qabul qilamiz.

Mexanik isroflar momentini hisobga olmasdan quydagini olamiz:

$$M_n = P_n / \omega_n = 100 \cdot 10^3 / 100 = 1000 \text{ N} \cdot \text{m}.$$

Ushbu $M_n = k \cdot \Phi_n \cdot I_n$ nisbatdan esa

$$K\Phi_n = M_n / I_n = 1000 / 1000 = 1 \text{ V} \cdot \text{s} \text{ ni aniqlaymiz.}$$

Mexanik tavsifning ifodasidan esa

$$R_{ya} = (U_{ya} / k\Phi_n - \omega_n) \cdot (k\Phi_n)^2 / M_n = (110 / 1 - 100) \cdot 1 / 1000 = 0,01 \Omega$$

ekanini aniqlaymiz. Qo'shimcha R_k rezistorni ulaganda

$$\omega = \omega_0 - [R_{ya} + R_k / (k\Phi_n)^2] \cdot M,$$

bundan esa

$$R_k = [(\omega_0 - \omega) / M] \cdot (k\Phi_n) - R_{ya};$$

agar $\omega = -0,2 \omega_n$; $M = M_n$ bo'lsa, u holda

$$\omega_0 = U_n / k\Phi_n = 110 / 1 = 110 \text{ s}^{-1};$$

$$R_k = [110 - (-0,2 \cdot 100)] / 1000 \cdot 1^2 = 0,01 = 0,12 \Omega.$$

3. ELEKTR YURITMALARNING KOORDINATALARINI ROSTIASH

Bu bosh elektr yuritmalarning asosiy koordinatalarini rostlash bilan bog'liq bo'lgan savollarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, mazkur buba bo'lgan masalalar ham keltirilgan. Bir qator masalalarni yechishda zamonaviy standart (namuna) sozlash uslublari koordinatalarni rostlovchi konturlarning sintesi misolida yoritiladi.

3.1. Masala va savollar

3.1. Elektr yuritmalarning umumlashgan ochiq konturli elektromexanik tizim tuzilish (struktura) sxemasini tasvirlash asosida o'zgarmas tok, asinxron va sinxron dvigateli

lardan tashkil etilgan elektr yuritmani baholovchi parametrlari tushuntiring.

3.2. Mexanizm inersiya momentining ko'payishi elektr yuritmaning ochiq konturli elektromexanik tizimi tebranishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

3.3. O'zgarmas tok dvigatelida yakor zanjiridagi qarshilikning ortishi elektr yuritmaning ochiq konturli elektromexanik tizimi tebranishiga qanday ta'sir qo'rsatadi?

3.4. Asinxron dvigateli asosiy (kapital) ta'mirlanish vaqtida havo oralig'inining kattalashuvi elektr yuritmaning ochiq konturli elektromexanik tizimi tebranishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

3.5. Chiziqli mexanik tavsifga ega elektr yuritmaning elektromexanik tizimining boshlang'ich shartlari nol va $M_{yu} = 0$ bo'lganida kirish ω_0 ta'sir sakrashidan hosil bo'lgan reaksiyaning o'tkinchi funksiyasini toping. Elektr yuritma o'zgaruvchi inersiya momenti va unga mos ravishda o'zgaradigan elektromexanik vaqt doimiyligi T_m bilan ishlaydi. Ushbu uchta holatni ko'rib chiqing:

- a) $T_{va} = 0,01$ s; $T_m = 0,05$ s;
- b) $T_{va} = 0,01$ s; $T_{in} = 0,04$ s;
- c) $T_{va} = 0,01$ s; $T_m = 0,03$ s.

3.6. O'zgarmas tok dvigatelli ochiq konturli elektromexanik tizimning so'nish koeffitsiyentini va tebranishining logarifmik dekrementini aniqlang. Dvigatel quyidagi pasport ko'rsatkichlariga ega: $U_n = 220$ V; $I_n = 20$ A; $\omega_a = 100$ rad/s; $R_{ya\Sigma} = 1 \Omega$; $L_{ya\Sigma} = 0,01$ H; $J_z = 0,08 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$.

3.7. Asinxron dvigatelli ochiq konturli elektromexanik tizimning so'nish koeffitsiyentini va tebranishining logarifmik dekrementini aniqlang. Dvigatel quyidagi pasport ko'rsatkichlariga ega: $M_k = 100 \text{ N} \cdot \text{m}$; juft qutblar soni $p_j = 2$; kritik sirpanishi $S_k = 0,2$; $J_z = 0,1 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$.

3.8. Mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatel vali qayishqoqligi $C_{12} = 200 \text{ N} \cdot \text{m}/\text{rad}$ bo'lgan mufta orqali yuklama bilan ulangail. Yuklama o'qi to'xtatilgan holatda logarifmik so'nish dekrementini yakor zanjiriga ulanadigan

qarshilik miqdoriga bog'liq bo'lgan grafigini quring. Dvigatelning pasport ko'rsatkichlari $U_n=220$ V; $I_n=20$ A; $\omega_n=100$ rad/s; $R_y=1 \Omega$; $J=0,1 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$ (elektromagnit inersiyani hisobga olmang).

3.9. Ikki massaga ega elektromexanik tizimda dvigatelning mexanik tavsifining bikirligi ushbu qiymatlarga ega bo'lganida nega qayishqoqlik tebranishlarda tinchlantirgich bo'lmaydi?

a) $\beta = 0$;


b) $\beta = \infty$.

3.10. Mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatel tezligini rostlash uchun generator-dvigatel (G—D) tizim qo'llanilgan. Generator va dvigatel sifatida ishlatilgan elektr mashinalar ikkalasi bir xil quyidagi nominal ko'rsatkichlarga ega: nominal quvvat $P_n=12$ kWt; nominal aylanish chastotasi $n_n=790$ ayl/min; nominal kuchlanishi $U_n=220$ V; nominal toki $I_n=65$ A; yakor zanjiri qarshiliklarining yig'indisi $r_y=0,266 \Omega$; inersiya momenti $J=0,4 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$. Dvigatel tezligini rostlash diapazonini aniqlang. Quyidagilar berilgan: tezlikni ushlab turish aniqligi $\pm 15\%$; dvigatel yuklamasining momenti 0,1 M_n dan to M_n gacha oraliqda o'zgaradi; generatorning qoldiq EYK ± 5 V ni tashkil etadi; ish jarayonida mashinalarning harorati $+50^\circ\text{C}$ dan to $+90^\circ\text{C}$ gacha o'zgaradi.

3.11. Ko'rsatkichlari oldingi masalada keltirilgan dvigatel tezligini rostlash uchun tiristorli o'zgartgich (TO') ishlatilgan. TO' ko'priksimon uch fazali sxema asosida yig'ilgan bo'lib, kuchlanishi 3×220 V bo'lgan elektr tarmoqdan bevosita energiya oladi. Tezlikni rostlash oralig'i (diapazoni) $D=5 : 1$ bo'lsin. Tezlikni bunday rostlash uslubida cosq o'zgarishini baholang.

3.12. G—D tiziunda dvigateini 0,7 s ichida ishga tushirish uchun zarur bo'lgan jadallashtirish koeffitsiyentini aniqlab bering. Dvigatei va generatorning pasport ko'rsatkichlari 3.10- masalada keltirilgan. Shuningdek, generator qo'zg'atish chulg'amining vaqt doimiysi $T=1,5$ s, qo'zg'atish chulg'amining nominal kuchlanishi $U_k=220$ V.

3.13. Mustaqil qo‘zg‘atishli o‘zgarmas tok dvigatelining yakor chulg‘amiga qo‘shimcha qarshilik R_{sh} parallel ulangan. Natijada sun’iy elektromexanik tavsif olingan. Ta’milot kuchlanishi 220 V, dvigatelning tabiiy elektromexanik tavsifi ma’lum va u 3.1- rasmida ko‘rsatilgan.



3.1- rasm.

Berilgan shartlardan R_{sh} va R_k qarshiliklarning qiymatlarini aniqlang.

3.14. Agar quyidagi qarshiliklardan birortasi uzilsa, mustaqil qo‘zg‘atishli o‘zgarmas tok dvigatelining elektromexanik tavsiflarini (3.13- masaladagi sxema) tasvirlab bering:


a) R_k ;

b) R_{sh} .


3.15. Ketma-ket qo‘zg‘atishli o‘zgarmas tok dvigateli generatordan ta’milnadi. Generator sifatida xuddi dvigateli o‘zi kabi elektr mashina ishlatalgan. Bu sxemada salt yurish rejimi xavfli bo‘ladimi? Bunday tizimda tezlikni rostlash uslubini taklif eting.

3.16. Ketma-ket qo‘zg‘atishli o‘zgarmas tok dvigateli ushbu nominal ko‘rsatkichlarga ega: $P_n=6 \text{ kWt}$; $U_n=220 \text{ V}$; $n_n=850 \text{ ayl/min}$; $I_n=36 \text{ A}$; yakor zanjirining qarshiligi

r_{v} = 0,2 Ω ; qo'zg'atish chulg'ami qarshiligi r_{qch} = 0,1 Ω . Magnitlash egriligi 3.2- rasmda keltirilgan ko'rinishga ega bo'lgan to'g'ri chiziq bilan approksimasiyalash mumkin. O'zo'zini qo'zg'atish bilan dinamik tormozlash rejimb uchun(3.3- rasm) dvigatearning elektromexanik tavsifmi hisoblang va quring. Dinamik tormozlashdagi qo'shimcha qarshilik R_k = 0,6 Ω .




3.2- rasm.



3.3- rasm.

3.17. Ketma-ket qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigateli (passport ko'rsatkichlari oldingi masalada keltirilgan) 3.4- rasmda ko'rsatilganidek, yakor chulg'ami shuntlangan sxemada ishlamoqda. Shuntlash qarshiligi R_{sh} = 0,6 Ω ; qo'shimicha qarshilik R_k = 1,2 Ω . Moxanik tavsifni hisoblab chiqing va quring.

3.18. Ketma-ket qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigateli (passport ko'rsatkichlari 3.16- masalada berilgan) 3.4- rasmda berilgan sxemaga mos yakor chulg'ami shuntlangan holda



3.4- rasm.

ishlamoqda. Shuntlash qarshiligi $R_{sh} = 0,9 \Omega$, qo'shimcha qarshilik $R_q = 2 \Omega$ teng. Dvigatelning mexanik va elektromexanik tavsiflarini hisoblab chiqing va quring.

3.19. Qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron dvigatelning tezligi chastota o'zgaqtgich – asinxron dvigatel (ChO' – AD) tiziimida rostlanadi. Dvigatelning pasport ko'rsatkichlari quyidagilar: $P_n = 3,5 \text{ kWt}$; $n_n = 878 \text{ ayl/min}$; $U_n = 380 \text{ V}$; $I_n = 10,1 \text{ A}$; stator chulg'amining aktiv qarshiligi $r_1 = 2,16 \Omega$; statorming reaktiv qarshiligi $x_1 = 2,03 \Omega$; rotorning statorga keltirilgan aktiv qarshiligi $r_2 = 3,33 \Omega$; rotorning statorga keltirilgan reaktiv qarshiligi $x_2 = 1,46 \Omega$.

Quyidagi shartlar bajarilganda statorga berilishi kerak bo'lган chastota va kuchlanishni aniqlang:

a) yuklama momenti $M_yu = 15 \text{ N} \cdot \text{m}$; $\omega = 157 \text{ rad/s}$ bo'lganida;

b) yuklama momenti $M_yu = 15 \text{ N} \cdot \text{m}$; $\omega = 45 \text{ rad/s}$ bo'lganida.


3.20. Qisqa tutashtirilgan rotorli ikkita asinxron dvigatei (pasport ko'rsatkichlari oldingi masalada berilgan) umumiy valda ishlaydilar. Ishlab chiqarishdagi texnologik nomutanosiblik tufayli birinchi mashina rotorining aktiv qarshiligi pasportdagi ko'rsatkichdan 10% kam, ikkinchi mashina rotor chulg'amining aktiv qarshiligi pasport ko'rsatkichidan 10% ga ko'p bo'lib chiqdi. Agar umumiy yuklama $M_yu = 75 \text{ N m}$ bo'lsa, dvigatellarning yuklanish darajasini baholang.

3.21. Mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatelini ishga tushirishdagi o'tkinchi jarayonni hisoblang. Dvигател quyidagi pasport ko'rsatkichlarga ega: $P_n = 12 \text{ kWt}$; $n_n = 1360 \text{ ayl/min}$; $U_n = 220 \text{ V}$; $I_n = 64 \text{ A}$; $r_{ya\Sigma} = 0,194 \Omega$; $J_{\Sigma} = 0,4 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; o'ta yuklanish imkonii $\lambda = 2$. Ishga tushirish tokini yetarli darajada chegaralash uchun yakor zanjiriga qo'shimcha rezistor ulangan. Statik yuklama momenti dvigatelning nominal momentiga teng.

3.22. Mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatelini (pasport ko'rsatkichlari oldingi masalada keltirilgan) turli

$N = 1, 2, \dots, 7$ songa teng pog'onalar bilan ishga tushirganda ishga tushirish vaqtlarini solishtiring. Ishga tushirish pog'onalari sonini tanlashga tavsiyalar bering.

3.23. Mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigateli (pasport ko'rsatkichlari 3.12- masalada keltirilgan) uchun yakor zanjiriga berilgan kuchlanish 3.5- rasmida tasvirlangan qonun bo'yicha o'zgaradigan holatdagi ishga tushirish o'tkinchi jarayonini hisoblang. Qarshilik momenti reaktiv xususiyatli va u $M_{yu} = M_n$.




3.5- rasm.

3.24. G-D tizimida ishlaydigan dvigatejni ishga tushirishnda generatorni qo'zg'atish chulg'aniga $U_k = 10$ V kuchlanish berilganidagi o'tkinchi jarayonni hisoblang. Generatorning uzatish koefitsiyenti $K_g = 4,4$, generator qo'zg'atish chulg'anining vaqt doimiysi $T_g = 0,5$ s; generator — dvigatel tizimining yakor zanjiri qarshiligi $r_{ya} = 0,5 \Omega$; generator — dvigateli yakor zanjiri induktivligi $L_{ya} = 0,025 \text{ H}$; $U_n = 220 \text{ V}$; dvigatelinin ideal salt yurish teziigi $\omega_0 = 110 \text{ rad/s}$; $J_z = 0,8 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; statik qarshilik momenti aktiv xususiyatli bo'lib, u $M_{yu} = 10 \text{ N} \cdot \text{m}$.

3.25. G-D tizimida (tizim ko'rsatkichlari oldingi masalada keltirilgan) generatorni qo'zg'atish cho'lg'amiga

berilgan $U_{\text{kch}} = +5 \text{ V}$ kuchlanish $U_{\text{kch}} = -5 \text{ V}$ ga o'zgartirilganda (3.6- rasm) reverslash o'tkinchi jarayonini hisoblang. Yuklama momenti reaktiv xususiyatli va u $M_{yu} = 10 \text{ N} \cdot \text{m}$. $\omega(t)$ va $i_{ya}(t)$ bog'lanishlar grafigini quring.




3.6- rasm.

3.26. Faza rotorli asinxron dvigatelni nominal miqdordagi yuklama bilan minimal (eng kichik) vaqt oralig'ida ishga tushirish uchun rotor zanjiriga ularishi zarur bo'lган qarshilik qiymatini aniqlang. Tezlik o'rnalgan qiymatning 95 % ga etganida ishga tushirish tugaydi deb qabul qiling. Dvigateling pasport ko'rsatkichlari: $P = 7,5 \text{ kWt}$; $n = 945 \text{ ayl/min}$; $I_n = 38 \text{ A}$; $U_n = 380 \text{ V}$; $r_1 = 0,9 \Omega$; $x_1 = 0,663 \Omega$; rotor fazasining aktiv qarshiligi $r_2 = 0,35 \Omega$; rotor fazasining sochilma oqimi hisobiga induktiv qarshiligi $x_2 = 0,511 \Omega$; dvigateling kuchlanish transformatsiya koefisiyenti $K_s = 1,51$; inersiya momenti $J = 0,225 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$.

3.27. Salt ishlayotgan asinxron dvigatelni dinamik tormozlashdan foydalaniib (dvigateling pasport ko'rsatkichlari oldingi masalada keltirilgan) eng tez to'xtashini ta'minlay oladigan rotor chulg'amiga ularishi zarur bo'lган qarshilik qiymatini hisoblab toping. O'zgarmas kuchlanish manbayining eng ko'p (maksimal) bera oladigan toki $I_u = 5 \text{ A}$. Asinxron dvigateling magnitlash konturining induktiv

qarshiligi $x_{\mu} = 22 \Omega$. Stator chulg'amini turlicha ularash sxemalari bilan to'xtatish vaqtlarini baholayg.

3.28. Pasport ko'rsatkichlari 3.26- masalada keltirilgan asinxron dvigatel chastota o'zgartgichidan stator chulg'ami qarshiligida kuchlanish pasayishini, ya'ni IR – kuchlanish tushishini kompensatsiya qiladigan ta'minot oladi. Chastota f chiziqli o'zgarganida hosil bo'ladigan o'tkinchi jarayonni hisoblang. Chastota va fazalar kuchlanishining o'zgarish grafigi 3.7- rasmda keltirilgan. Yuklama momenti dvigatelning nominal momentiga teng: $M_{y_n} = M_n$.




3.7- rasm.

3.29. Ayonmas qutbli sinxron dvigatel SD salt yurish rejimida ishlamoqda. SD burchak tavsifi $M = 2500 \sin Q$ ko'rinishga ega. Dvigatelning yuklama bilan birgalikdagi inersiya momenti $J_y = 21 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$. Dvigatel ushbu ko'rsatkichlarga ega: kritik moment $M_{k_r} = 1200 \text{ N} \cdot \text{m}$; kritik sirpanish $S_k = 0.3$; salt yurish tezligi $\omega_0 = 157 \text{ rad/s}$. Ushbu yuklana $M_{y_n} = 1000 \text{ N} \cdot \text{m}$ berilganda hosil bo'ladigan o'tkinchi jarayonni hisoblang. Tezlikning vaqtga $\omega(t)$ bog'liqlik grafigini chizing.

3.30. G-D tizimida (3.8- rasm) tezlikni berilgan darajada aniqlik bilan ushlab turish uchun tezlik bo'yicha manfiy teskari bog'lanish ishlataligan. Yuklama moment noldan nominal qiymatgacha o'zgarganida tezlik kamayishini 1 % aniqlik bilan ta'minlay oladigan teskari bog'lanish K_{r_R}

koeffitsiyentini aniqlang. Rasmida quyidagi belgilashlar kiritilgan: TO' — tiristorli qo'zg'atish; G — generator; M — motor; $GQCh$ — generator qo'zg'atish chulg'ami; $MQCh$ — motor qo'zg'atish chulg'ami; BR — taxogenerator. Tezlikni rostlash diapazoni $D=10:1$. Tizimning pasport ko'rsatkichlari: dvigatelning nominal quvvati $P_n=4,5 \text{ kWt}$; nominal kuchlanishi $U_n=220 \text{ V}$; nominal toki $I_n=26 \text{ A}$; dvigatelning nominal aylanish tezligi $n_n=1030 \text{ ayl/min}$; $r_{yad}=0,95 \Omega$; $r_{vag}=0,8 \Omega$; generatorni qo'zg'atish chulg'amining nominal kuchlanishi $U_{kch}=110 \text{ V}$; generator yakorining nominal kuchlanishi $U=230 \text{ V}$; tiristorli qo'zg'atgichning uzatish koeffitsiyenti $K_k=11$.




3.8- rasm.

3.31. Tok va tezlik konturlari texnik optimumga sozlanadigan o'zgarmas tok elektr yuritmasining koordinatalari bo'yusungan rostlanadigan tizimni (3.9- rasm) hisoblang. Rasmida quyidagi belgilashlar kiritilgan: TzR — tezlik rostalgichi; TkR — tok rostlagichi; TO' — tiristorli o'zgartgich; D — dvigatel; $DQCh$ — dvigatel qo'zg'atish chulg'ami; BR — taxogenerator; K_{id} — tok bo'yicha teskari bog'lanish koeffitsiyenti; K_{zd} — tezlik bo'yicha teskari bog'lanish koefitsienti. $TO'-D$ tizimining ushbu parametrlari ma'lum: tiristorli o'zgartgichning uzatish koeffisiyenti $K_u=22$; tiristorli o'zgartgichning vaqt doimiysi $T_u=0,01 \text{ s}$; yakor zanjirining o'zgartgich bilan birgalikdagi qarshiliklari yig'indisi $R_{va\Sigma}=0,84 \Omega$; yakor zanjirining vaqt doimiysi

$T_{\text{vaz}} = 0,08$ s; dvigatelning nominal kuchlanishi $U_n = 220$ V; dvigatelning nominal toki $I_n = 44$ A; ideal salt yurish tezligi $\omega_0 = 91$ rad/s; dvigatelning yuklama bilan birgalikdagi inersiya momenti $J_z = 0,4 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; tok bo'yicha teskari bog'lanish koefitsiyenti $K_{td} = 0,08 \text{ V/A}$; tezlik bo'yicha teskari bog'lanish koefitsiyenti $K_{zd} = 0,1 \text{ V} \cdot \text{s}/\text{rad}$. Tiristorli o'zgartgich-dvigatel tizimining statik mexanik tavsiflarini quring.

3.32. Tizim kirishiga boshqarish $U_n = 10$ V kuchlanishi berilganida bo'y sunuvchan rostlanadigan tizimli o'zgarmas tok (oldingi masalada berilgan) elektr yuritmasining salt holatda ishga tushirish o'tkinchi jarayonini hisoblang. Salt ishga tushirishda hosil bo'lgan rostlashning dinamik hatosini va nominal yuklamadagi xatoni baholab bering. Natijani tushuntiring.




3.9- rasm.

3.33. Koordinatalari bo'y sunilgan tizimda rostlanadigan (ko'rsatkichlari oldingi masalada keltirilgan) elektr yuritmaning qiymati nominal miqdorga teng reaktiv yuklama bilan ishga tushirish o'tkinchi jarayonini hisoblang. Bunda kirish signali U_n jadallik topshiriqchisidan 3.10- rasmida ko'rsatilgan qorun bilan beriladi.

3.34. Agar 3.31- masalada hisoblangan koordinatalari bo'y sunilgan tizimda rostlanadigan elektr yuritma nominal momentga teng yuklama $M_yu = M_n$ va $\omega = 30$ rad/s tezlik bilan

aylanayotgan paytda tizimdagи tok bo'yicha teskari bog'lanish uzelib ketsa nima bo'ladi? Tiristorli o'zgartgich 127 V uch fazali elektr tarmoqdan ta'minlanadi va ko'priksimon sxema asosida qurilgan.



3.10- rasm.

3.2. Masala yechish namunaları


3.1- masala. Tuzilish sxemasining parametrlarini aniqlang va ochiq konturli $TO^{\circ}-D$ tizimning tebranishligini baholang. Ushbu ko'rsatkichlar berilgan:

- a) dvigatel uchun $U_n = 220$ V; $I_n = 35$ A; $c = 2,6$ V · s; $L_{ya\Sigma} = 0,01$ H; $R_{dyal\Sigma} = 0,057$ Ω; $J_{ya\Sigma} = 0,41$ kg · m²;
- b) o'zgartgich uchun $m=3$; $X=0,45$ Ω; $R_t=0,02$ Ω; $U_{in}=220$ V; $U_{bn}=10$ V; $\Delta U_v=2$ V; $T_u=0,01$ s;
- d) silliqlovchi reaktor uchun $L_r=0,05$ H; $R_r=0,065$ Ω.

Yechilishi: $TO^{\circ}-D$ tizimning tuzilish sxemasini 3.11- rasmda keltirilganidek tasvirlaymiz.

Masala shartiga binoan T_m , T_{ya} , $R_{ya\Sigma}$, K_u parametrlarni aniqlash so'raladi.

$$R_{ya\Sigma} = (R_{dyal\Sigma} + R_t + R_r + R_v + R_i) \cdot 1,1,$$



3.11- rasm.

bunda o'zgartgich ventillarining qarshiligi

$$R_v = n \cdot \Delta U / I_n = 1 \cdot 2/35 = 0,057 \Omega$$

ventillardagi kommutasiya qarshiligi

$$R_k = m \cdot X / 2\pi = 3 \cdot 0,45 / 2\pi = 0,21 \Omega.$$

U holda

$$R_{ya} = (0,057 + 0,02 + 0,065 + 0,21 + 0,057) \cdot 1,1 = 0,45 \Omega;$$

$$L_{ya} = L_{zya} + L_p = 0,01 + 0,05 = 0,06 \text{ H};$$

$$T_{ya} = L_{ya} / R_{ya} = 0,06 / 0,45 = 0,13 \text{ s};$$

$$\beta = s^2 / R_{ya} = 2,6^2 / 0,45 = 15 \text{ N} \cdot \text{m} \cdot \text{s};$$

$$T_m = J / \beta = 0,41 / 15 = 0,027 \text{ s};$$

$$K_o = U_{dn} / U_{bn} = 220 / 10 = 22;$$

$$m = T_m / T_{ya} = 0,027 / 0,13 = 0,2.$$

Demak, ochiq konturli TO'-D tizimi berilgan T_m va T_{ya} vaqt doimiyalarining nisbatida ushbu tebranishni so'ndiruvchi dekrement koeffitsiyenti bilan tebranishlikka ega:

$$\lambda = \frac{\pi \cdot m}{\sqrt{m - \frac{m^2}{4}}} = \frac{\pi \cdot 0,2}{\sqrt{0,2 - \frac{0,2^2}{4}}} = 1,44.$$


3.2- masala. TO‘-D tizimni ishga tushirish paytida momentni rostlash konturini texnik optimumga sozlash uchun o‘rnalgan $\Delta M_{\text{or}(1)}(0)$ xatoni aniqlang.

Berilgan: $\omega = 100 \text{ rad/s}$; $T_u = 0,01 \text{ s}$; $U_n = 220 \text{ V}$; $I_n = 100 \text{ A}$; $\omega_n = 100 \text{ rad/s}$; $R_{ya} = 0,2 \Omega$.

Yechilishi: Tashqi ta’sir bo‘yicha xato quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\Delta M_{\omega}(r) = \omega(p) \cdot W_{20}(p) / [1 + W_{\text{or}}(p)].$$

Bu yerda $W_{20}(p)$ —rostlash ob’ektining (3.12- rasmga qarang) uzatish funksiyasi.



3.12- rasm.

Kompensasiya qilinmaydigan kichik vaqt doimiysi sifatida $T_u = T_e$ ni qabul qilib, sozlashda texnik optimumlash uchun ochiq konturli uzatish funksiyasini quyidagi ko‘rinishda qabul qilamiz:

$$W_{\text{or}}(p) = 1/[2T_u P(T_e P + 1)].$$

3.12- rasmida

$$W_{20}(p) = \beta_e / T_e R + 1.$$

U holda tashqi ta’sir bo‘yicha xato

$$\Delta M_{\text{or}(1)}(0) = \omega(p) \cdot \beta \cdot 2T_u P(T_e P + 1) / T_e R + 1 \cdot [2T_u P(T_e P + 1)].$$

Shartga binoan

$\omega(t)=100 \text{ rad/s}$, bu esa $\omega(p)=100/\mu$ ekanligini bilamiz,
u holda

$$\Delta M_{\omega(1)}(0) = 100\beta_i \cdot 2T\mu/1.$$

Quyidagini aniqlaymiz:

$$C = (U_n - R_s I_n)/\omega_n = (220 - 0,2 \cdot 100)/100 = 2 \text{ V} \cdot \text{s.}$$

Tabiiy tavsifning bikirligi

$$\beta = C^2/R_s = 2^2/0,2 = 20 \text{ N} \cdot \text{m.}$$

U holda

$$\Delta M_{\omega(1)}(0) = 100 \cdot 20 \cdot 2 \cdot 0,01/1 = 40 \text{ N} \cdot \text{m.}$$

4. ELEKTR YURITMALARNING ENERGETIKASI. ELEKTR DVIGATELLARNING QUVVATINI TANLASH

Bu bobda dvigatellarga turli xarakterga ega yuklamalar berilganida ularning qizishi va sovutilish shartlariga tegishli savollar kiritilgan. O'tkinchi jarayonlarda dvigatellardagi energiya isroflarini baholashga ham diqqat qaratilgan. Ayrim masalalar; ekvivalent qiymatlar uslublarining tanlangan dvigatellarni qizish bo'yicha tekshirish uchun qo'llashga bag'ishlangan.


4.1. Masalalar va savollar

4.1. O'zini-o'zi shamollatadigan dvigatel ushbu davriy (siklii) rejimda ishlaydi: 50 s – to'liq y'klama bilan; 50 s – pauza (tanaffus, to'xtash). Qizish nuqtai-nazaridan pauzani o'tashda quyidagi ikki uslubni solishtiring: birinchi holda vaqtida dvigatel elektr ta'moqdan uzib qo'yiladi,

ikkinci holda esa pauza vaqtida dvigatel salt yurishi rejimida aylanishni davom ettiradi.

4.2. Mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatelinii salt holatda ishga tushirish davrida yakorga berilgan kuchlanish 4.1- rasmida ko'rsatilgan qonuniyat bilan o'zgarganda yakor zanjiridagi energiya isrofini aniqlang.

Dvigatelning passport ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:




4.1- rasm.

$$P_n = 2 \text{ kWt}; U_n = 220 \text{ V}; \\ \omega_0 = 100 \text{ rad/s}; r_{ya} = 0,5 \Omega; \\ J_{\Sigma} = 0,1 \text{ kg} \cdot \text{m}^2.$$

4.3. Mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatelinii salt holatda ishga tushirish davrida yakorga berilgan kuchlanish 4.2- rasmida ko'rsatilgan qonuniyat bilan o'zgarganda yakor zanjiridagi energiya isrofini aniqlang.

Dvigatelning passport ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat: $P_n = 2 \text{ kWt}$; $U_n = 220 \text{ V}$; $I_n = 10 \text{ A}$; $\omega_0 = 100 \text{ rad/s}$; $r_{ya} = 0,5 \Omega$; $J_{\Sigma} = 0,1 \text{ kg m}^2$.



4.2- rasm.

4.4. Mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigatelini salt holatda ishga tushirish davrida yakorga berilgan kuchlanish $U = 220 (1 - e^{-0.3t})$ qonuniyat bilan o'zgarganda yakor zanjiridagi energiya isrofini aniqlang. Dvigatelning pasport ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat: $P_n = 2 \text{ kWt}$; $U_n = 220 \text{ V}$; $I_n = 10 \text{ A}$; $\omega_0 = 100 \text{ rad/s}$; $r_ya = 0,5 \Omega$; $J_z = 0,1 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$.

4.5. Asinxron dvigatelni salt holatda ishga tushirish va teskari ulab tormozlash davrida dvigatelda bo'ladigan energiya isrofini aniqlang. Asinxron dvigatelni ushbu pasport ko'rsatkichlari ma'lum: nominal kuchlanishi $U_n = 220 \text{ V}$; just qutblar soni $p = 2$; inersiya momenti $J_z = 0,5 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; stator chulg'amining aktiv qarshiligi $r_1 = 0,1 \Omega$; stator chulg'amining sochilma oqimlardan hosil bo'ladigan induktiv qarshiligi $x_1 = 1 \Omega$; rotor chulg'amini aktiv qarshiligi $r_2 = 0,05 \Omega$; rotor chulg'amini sochilma oqimlardan hosil bo'ladigan induktiv qarshiligi $x_2 = 1 \Omega$; transformasiya koefitsiyenti $K = 2$.

4.6. Agar dvigatel salt holatda va ~~yuklangan holatda ishga tushirilsa, energiyasi~~ qanday nisbatda bo'ladi?

4.7. Dvigatelni to'g'ridan-to'g'ri va reostat orqali salt holatda ishga tushirilganda bo'ladigan energiya isloflarini solishtiring.

4.8. Ikkita tezlikka ega asinxron dvigatelda bo'ladigan energiya isrofini ushbu rejimlar uchun solishtiring:

a) bir pog'onada $\omega = 314 \text{ rad/s}$ tezlikkacha ishga tushirish;

b) ikki pog'onada $\omega = 314 \text{ rad/s}$ tezlikkacha just qutblar sonini qayta ulab ishga tushirish;

c) $\omega = 314 \text{ rad/s}$ tezlikdan to $\omega = 157 \text{ rad/s}$ tezlikkacha dinamik tormozlash bilan va undan so'ng $\omega = 157 \text{ rad/s}$ dan to $\omega = 0$ gacha tezlikkacha stator chulg'amlarini teskari ulash bilan tormozlash;

d) stator chulg'amlarini teskari ulash bilan $\omega = 314 \text{ rad/s}$ dan to $\omega = 157 \text{ rad/s}$ gacha tezlikkacha tormozlash va undan so'ng $\omega = 157 \text{ rad/s}$ dan to $\omega = 0$ gacha tezlikkacha dinamik tormozlash bilan to'xtatish;

e) bir pog'onada stator chulg'amlarini teskari ulash

orqali $\omega=314$ rad/s dan to $\omega=0$ gacha tezlikkacha tormozlash;

g) bir pog'onada stator chulg'amlarini $\omega=314$ rad/s dan to $\omega=0$ gacha tezlikkacha dinamik tormozlash usuli bilan to'xtatishgan.

Asinxron dvigatel ushbu pasport ko'rsatkichlariga ega: juft qutblar soni $p=2/1$; inersiya momenti $J_{\Sigma}=1$ kg · m²; stator chulg'aming aktiv qarshiligi $r_1=0,1$ Ω; rotor chulg'aming keltirilgan aktiv qarshiligi $r_2'=0,2$ Ω. Yuklamaning qarshilik momentini hisobga olmang.

4.9. Turg'un rejimda o'zgarmas tok dvigatelida bo'ladigan energiya isroflarining umumiy ifodasini yozing. Qisqa tutashish rejimida po'latda bo'ladigan isroflarni aniqlang. Javobni asoslab bering.

4.10. Turg'un rejimda asinxron dvigatelda bo'ladigan energiya isroflarining umumiy ifodasini yozing. Qisqa tutashish rejimida po'latda bo'ladigan isroflarni aniqlang. Javobni asoslab bering.

4.11. Asinxron dvigatel o'zgarmas yuklama bilan ishlayotganida, uning rotor zanjiriga rotorni qarshiligiga teng qo'shimcha qarshilik kirgizilsa, dvigatelning quvvat koeffitsiyenti cosø va FIK qanday o'zgaradi?

4.12. Dvigatelning FIK yuklamaga bog'liqligi nochiziqli va uning maksimumi, odatda, nominal yuklamadan chapraqda joylashgan. Nima uchun elektr mashinalarni loyihalovchilar, ularni FIK maksimumini nominal yuklamadan kichik miqdorda tanlashadi va bu holda o'zgarmas isroflar bir-biriga qanday nisbatda bo'lishadi?

4.13. O'zgarmas tok dvigatelinin tezligi reostat yordamida rostlanadi va uning yuklamasi tezlikka chiziqli $M_y = M_n (\omega/\omega_n)$ bog'liq. Bunda dvigateli yakor zanjiridagi isrofi qaysi tezlikda maksimal qiymatga ega bo'ladi?

4.14. O'zgarmas tok dvigatelinin tezligi reostat yordamida rostlanadigan bo'lsa, yakor zanjiridagi isroflarning tezlikka bog'liqlik grafigini. Yuklamaning mexanik tavsifi $M_y = M_n (\omega/\omega_n)^2$ ko'rinishga ega. Hisoblarni nisbiy birlikda bajaring va quyidagilarni e'tiborga oling: $M_n^* = 1$; $\omega_n^* = 1$,

salt yurish tezligi $\omega_0 = 1,1 \cdot \omega_n$.

4.15. Elektr mashina nazariyasida elektromashina qizishining tahlilida uni bir jinsli jism deb qaraladi. Ana shunday deb qabul qilishda qator joizliklar (farazlar, yo'li qo'yishlar) qabul etiladi. Ana shu har bir joizliklarni baholang.

4.16. Asinxron mashinaning qaysi bir qismlari salt yurish rejimida va qaysi bir qismlari nominal rejimga yaqin bo'lganida eng qizigan bo'ladi.

4.17. Agar shamollatgichsiz bo'lgan dvigatelga tashqi mustaqil ventilyator (shamollatgich) o'rnatilsak, nima o'zgaradi?

4.18. O'z-o'zini shamollatadigan dvigatel bilan mustaqil sovitiladigan dvigatelning qizish va sovish vaqt deimiyalarining qanaqa o'zaro nisbati bor?

4.19. Qizish vaqt doimiysi dvigatel gabaritiga (tashqi o'lchamlariga) qanday bog'liq??


4.20. Siz ishga tushirilishida katta moment talab etadigan mexanizmga qanday turdag'i dvigatel tanlashni taklif etgan bo'lar edingiz? Agar mexanizm $\omega = K/M_{yu}$ ko'rinishdagi mexanik tavsifga ega bo'lsa-chi? Agar mexanizm $M_{yu} = \text{const}$ ko'rinishidagi mexanik tavsifga ega bo'lsa-chi?

4.21. O'zgaruvchan yuklamaida ishlayotgan va magnit oqimni pasaytirish bilan tezligini rostlash amalga oshirilayotgan o'zgarmas tok dvigateli qizishini tekshirish uslubini taklif eting.

4.22. Tez- tez ishga tushiriladigan, ishga tushirish toklarini chekllovchi tiristorli kuchlanish rostagichi mavjud bo'lgan va o'zgaruvchan yuklama bilan ishlayotgan qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron dvigateli qizish bo'yicha tekshirishga uslub taklif eting.

4.23. Mexanizmning yuklama diagrammasi ma'lum, uni $M_{yu}(t)$ va $\omega(t)$ bog'lanishlari 4.3- rasmida keltirilgan. Dvigateli oldindan tanlash uchun zarur bo'lgan parametrlarni aniqlang.


4.24. Ko'targich mexanizmning yuklama diagrammasini hisoblab chiqing. Ish sikli (davri) massasi $m=1500$ kg



4.3- rasm.

bo'lgan yukni ko'tarishdan, 12 s tanaffus (pauza)dan, massasi $m=500$ kg yukni tushirishdan, yana 20 s pauzadan iborat bo'lib, keyin sikl qaytariladi. Ko'tarish balandligi $h=24$ m; yukning tezlanishi $a = 2 \text{ m/s}^2$; ko'tarish va tushirish tezligi $V = 1 \text{ m/s}$; mexanizmni, yuksiz dvigatel valiga keltirilgan inersiya momenti $J_m = 0,02 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$.

4.25. Himoyalangan o'zini shamollatadigan dvigatel o'zgarmas yuklama bilan davomli rejimda, ammo tezligi 4.4- rasmda tasvirlangandek o'zgaradigan qilib ishlatilmoqda. Rotor harakatsiz holatda uning issiqlik chiqarish koeffitsiyenti yomonlashib, $\beta = 0,2$ teng bo'ladi va u tezlikka chiziqli




4.4- rasm.

bog'liq. Ekvivalent momentni aniqlang. Buning uchun yana yuklama momenti $M=100 \text{ N} \cdot \text{m}$, dvigatelni nominal tezligi $\omega_n=100 \text{ rad/s}$ ekani ma'lum.

4.26. Dvigatel o'qidagi momentning vaqtga nisbatan $M(t)$ o'zgarishi berilgan (4.5- rasm). O'zgarmas tok dvigatelinining ekvivalent momenti miqdorini aniqlang.


4.27. Ishlash rejimi S3 bo'lgan dvigatelning quyidagi



4.5- rasm.

pasport ko'rsatkichlari ma'lum: $I=10 \text{ A}$; o'ta yuklanish qobiliyati $\lambda=2,5$; nominal ularish davomiyligi $\Pi_B=25 \%$. Dvigatel to'g'ri tanlanganini 4.6- rasmdagi tok ossillogrammalari $i(t)$ tasvirlangan rejimlar uchun tekshiring (o'zgarmas isroflarni hisobga olmang).

4.28. Ish rejimi S1 bo'lgan dvigatel quyidagi pasport



4.6- rasm

ko'rsatkichlariga ega: $P_n = 10 \text{ kW}$; $\omega_n = 100 \text{ rad/s}$; $U_n = 110 \text{ V}$; $I_n = 100 \text{ A}$; $r_{ya} = 0,05 \Omega$. Dvigatel $\Pi B = 25\%$. Takrorlanma – qisqa rejimda ishlamoqda. Qizish bo'yicha ruxsat etilgan yuklamani aniqlang.

4.29. Qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron dvigatelning salt ishlashi uchun ruxsat etilgan bir soatdagi ulanish sonini aniqlang. Dvigatelning passport ko'rsatkichlari quyidagicha: $P_n = 11 \text{ kW}$; $\Pi B_n = 25\%$; $n_n = 910 \text{ ayl/min}$; $U_n = 380 \text{ V}$; $I_{ln} = 26 \text{ A}$; $FIK\eta = 0,78$; $\cos\varphi_n = 0,76$; $M = 311 \text{ N} \cdot \text{m}$; $J_z = 0,22 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; $r_1 = 0,54 \Omega$; $r_2 = 0,73 \Omega$. Hisoblarni soddalashtirish uchun po'latdag'i istroflarni chastotaga proporsional deb qabul qiling.

4.2. Masala yechish namunalari

4.1- masala. Reversiv ishlaydigan mexanizm uchun dvigatelni tanlang. Uning yuklama diagrammasi va taxogrammasi quyidagi ko'rsatkichlarga ega: statik yuklama $M_yu = 180 \text{ N} \cdot \text{m}$ (reaktiv xususiyatga ega); shartli "oldinga" yurishini turg'un harakat tezligi vaqtiga $t_{u1} = 15 \text{ s}$; xuddi shunga o'xshash, harakat faqat "orqaga" $t_{u2} = 5 \text{ s}$; pauza vaqtiga $t_p = 17 \text{ s}$; o'tkinchi jarayonlardagi tezlanish $\epsilon = 50 \text{ s}^{-2}$; mexanizmni inersiya momenti $J_m = 0,65 \text{ kg m}^2$; elektr yuritmani "oldinga" yurishidan "orqaga" yurish reversi pauzasiz bajariladi; ikki yo'nalishda turg'un tezlik $\omega_u = 100 \text{ s}^{-1}$; yuklama dvigateiga tezligi $2,5 \omega_u$ qiyinligiga etganida "oldinga" tezlanish lahzasida sakrashsimon ravishda beriladi. Dvigatelning tanlagandan so'ng aniqlangan yuklama diagrammasini quring.


Y e c h i l i s h i . Ishga tushirish vaqtiga $t_p = \omega_u / \epsilon = 100 / 50 = 2 \text{ s}$.

Tormozlash vaqtiga $t_t = t_p = 2 \text{ s}$.

Revers vaqtiga $t_{rev} = 2\omega_u / \epsilon = 2 \cdot 100 / 50 = 4 \text{ s}$.

Mazkur hisoblar va berilgan ko'rsatkichlar asosida 4.7-rasmda mexanizmning taxminiy $\omega(t)$ taxogrammasi va $M_yu(t)$ yuklama diagrammasi keltirilgan.

4.7- rasmida ko'rinishicha ishga tushirish vaqtiga ikki



4.7- rasm.

bo'lakka bo'linadi:

$$t'_p = t''_p = t_p/2 = 1 \text{ s.}$$

U holda mexanizmnning ishlash sikli

$$t_s = t'_p + t''_p + t_{u1} + t_r + t_{u2} + t_i + t_0 = 1 + 1 + 15 + 4 + 5 + 2 + 17 = 45 \text{ s.}$$

Dvigatelning ish vaqtı

$$t_n = t_s - t_0 = 45 - 17 = 28 \text{ s.}$$

Sikl davrida dvigateldan talab etiladigan o'rtacha kvadratik moment

$$M_{uk} = \sqrt{\frac{\sum M^2 \cdot I}{I_s}} = M_p \sqrt{\frac{I_p}{I_s}} = 180 \cdot \sqrt{\frac{28}{45}} = 142 \text{ N} \cdot \text{m.}$$

Agar zahira koeffitsiyenti $K_z = 1,25$ ni hisobga olsak, u holda dvigateldan talab etiladigan quvvat

$$R_{dt} = K_z \cdot M_{uk} \cdot \omega_u = 1,25 \cdot 142 \cdot 100 = 17,75 \text{ kWt.}$$

Ushbu talablarni qondiradigan dvigateini tanlaymiz:

$$M_n > M_{uk}; \omega_n = \omega_u; R_n > R_{dt}.$$

Bu talablarga quyidagi nominal ko'rsatkichlarga ega $\Pi-81$

ti pidagi o'zgarmas tok dvigateli javob beradi: $P_n = 18 \text{ kW}$; $I_n = 0 \text{ A}$; $M_n = 180 \text{ N} \cdot \text{m}$; $\eta_n = 0,815$; $U_n = 220 \text{ V}$; $P_j = 2$; $\omega_n = 100 \text{ rad/s}$; $J_d = 0,4 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$; $\lambda = 2$.

Endi 4.7- rasmida ko'rsatilgan taxogrammaning turli bo'laklarida dvigatelei momentini hisoblab chiqamiz va aniqlangan diagrammani quramiz.

Inersiya momentining yig'indisi

$$J_z = J_m + J_d = 0,65 + 0,4 = 1,05 \text{ kg} \cdot \text{m}^2.$$

Salt holatda dvigatelei tezlatish uchun ketgan t' vaqtidagi moment $M_t = J_z \cdot \epsilon = 1,05 \cdot 50 = 52,5 \text{ N} \cdot \text{m}$.

Dvigatelei yuklama mavjud bo'lganda tezlatish uchun zarur bo'lgan moment

$$M_{yu} = M_n + M_t = 180 + 52,5 = 232,5 \text{ N} \cdot \text{m}.$$

Dvigatelei o'qida yuklama bilan dvigatelei tormozlashdagi moment

$$M_z = M_{yu} - M_t = 180 - 52,5 = 127,5 \text{ N} \cdot \text{m}.$$

Dvigatelei shartli "orqaga" yo'nalishga tezlatish uchun zarur bo'lgan moment

$$M_4 = -M_t - M_{yu} = -52,5 - 180 = -232,5 \text{ N} \cdot \text{m}.$$

Dvigatelei to'xtatish uchun zarur bo'lgan moment


$$M_s = M_t - M_{yu} = 52,5 - 180 = -127,5 \text{ N} \cdot \text{m}.$$

Bajarilgan hisoblar asosida 4.8- rasmida aniqlashtirilgan yuklama diagrammasi va taxogramma qurilgan.

4.2- masala. Ekvivalent moment uslubi bilan 4.1- masalada tanlangan dvigatelei qizish bo'yicha tekshirish talab etiladi.

Yechish. Ekvivalent momentni hisoblash uchun quyidagi formulani ishlatalamiz:

ω , M



4.8- rasm.

$$M_e = \sqrt{\frac{M_1^2 \cdot t_p + M_2^2(t_p + t_{pn}) + M_{yu}^2(t_{u1} + t_{u2}) + M_3^2(t_{T1} + t_{T2})}{\beta_{uT} \cdot 4t_{uT} + \beta_{u2} \cdot t_0 + t_{u1} + t_{u2}}};$$

Bu yerda $\beta_{u1} = 0,6$ – o‘tkinchi jarayonlarda issiqlik berishni yomonlashish koeffitsiyenti; $\beta_{u2} = 0,2$ – pauza vactida issiqlik berishni yomonlashish koeffitsiyenti.

Barcha miqdoriarning qiymatlarini ekvivalent moment formulasiga qo‘yamiz:

$$M_e = \sqrt{\frac{52,5^2 \cdot 1 + 232,5^2 \cdot 3 + 180^2 \cdot 20 + 127,5^2 \cdot 4}{0,6 \cdot 4 \cdot 2 + 0,2 \cdot 17 + 15 + 5}} = 176,4 \text{ N} \cdot \text{m}.$$

Endi $M_e = 176,4 \text{ N} \cdot \text{m} < M_n = 180 \text{ N} \cdot \text{m}$ ekanligini xisobga olsak, tanlangan dvigatel qizish bo‘yicha talabni qondirishiga ishonch hosil qilamiz.

АДАБИЁТЛАР

1. Ю.А.Борцов , Г.Г.Соколовский . Автоматизированный электропривод с упругими связями – СПб.: Энергоиздат. 1992.
2. Проектирование следящих систем /под. редакцией Локоты Н.А./ –М.: Машиностроение, 1993.
3. Справочник по автоматизированному электроприводу под.ред. В . А . Елисеева и А . В . Шиняинского . М.: Энергоатомиздат, 1983.
4. С.А.Ковчин , Ю.А.Сабинин . Теория электропривода –СПб.: Энергоатомиздат. 2000.
5. С.Н. Вешеневский . Характеристики двигателей в электроприводе – М.: Энергия, 1977.
6. S.S. Saidahmedov . Elektr sxemalarini o‘qish. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma, Т. 2002.

MUNDARIJA

Kirish	3
1. Elektromexanik tizimlarning mexanikasi	4
1.1. Masalalar va savollar	4
1.2. Masala yechish namunalari	13
2. Dvigatellarning elektromexanik xususiyatlari	17
2.1. Masalalar va savollar	18
2.2. Masala yechish namunalari	26
3. Elektr yuritmalarning koordinatlarini rostlash	29
3.1. Masalalar va savollar	29
3.2. Masala yechish namunalari	40
4. Elektr yuritmalarning energetikasi. Elektr dvigatellarning quvvatini tanlash	43
4.1. Masalalar va savollar	43
4.2. Masala yechish namunalari	50
Adabiyotlar	54

Bozorov, Najmiddin Hasanovich.

B77

Elektromexanik tizimlar statistikasi va dinamikasi:

(Masala, misol va nazorat to‘plami): Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma /N.H.Bozorov, S.S.Saidahmedov; O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim Vazirligi. T.: Istiqlol, 2005.-56 b.

I. Muallifdosh

BBK 31.2ya73

**NAJMITDIN HASANOVICH BOZOROV
SULTON SIDIQOVICH SAIDAHMEDOV**

ELEKTROMEXANIK TIZIMLAR STATIKASI VA DINAMIKASI

(Masala, misol va nazorat savollari to‘plami)

O‘quv qo‘llanma

Muharrir *N. Gayipov*

Badiiy muharrir *M. Jo‘rayev*

Texnik muharrir *Sh. Yo‘ldosheva*

Rosishga ruhsat etildi . Bichimi 84×108¹/32. «Tayms» harfida terildi.

Nashr tabog‘i 3,5. Adadi 1000 nusha. Buyurtma №8

«Istiqlol» nashriyoti, Toshkent, 700129, Navoiy ko‘chasi, 30.
Sharhnomalar № N - 49

XT “Melieva G. U.” bosmaxonasida chop etildi
Bobur ko‘chasi, 6-uy.